

## ERTA TA'LIMNI TO'G'RI QO'LLASH ORQALI BOLALARNI JAMIYATGA IJTIMOY MOSLASHTIRISH

**Ashirova O'g'iloy Abduvali qizi**

Guliston davlat universiteti magistranti

**Annotatsiya:** maqolada erta ta'limni to'g'ri qo'llash orqali bolalarni jamiyatga ijtimoiy moslashtirish to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Ota-onalarga bu borada tavsiyalar berilgan. Ijtimoiy moslashtirishda erta ta'limning ahamiyatli ekanligi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** erta ta'lim, ijtimoiy moslashtirish, men tuyg'usi, to'g'ri tarbiya usullari.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy rivojlanishi bolaning jamiyat qadriyatlarini, urf- odatlari va ma'daniyatini, shuningdek, jamiyatda qulay hayot kechirishiga yordam beradigan shaxsning ijtimoiy xususiyatlarini o'zlashtiradi. Ijtimoiy moslashuv jarayonida bolalar muayyan qoidalar asosida yashashni o'rganadilar va xatti- harakatlar normalarini hisobga olishadi.

Masaru Ibukaning ta'kidlashicha: “Barcha odamlar, agar jismoniy nuqsonlari bo'lmasa, deyarli bir xil holatda tug'iladilar. Bolalarning aqlli yoki nodon, ma'sum yoki tajovuzkor bo'lishi ularning tarbiyasiga bog'liq. Agar har bir bolaga kerakli narsa zarur vaqtda berilsa, u o'tkir zehni va kuchli irodaga ega bo'lib ulg'ayadi”.

Biz ko'pincha bolalarimizni tug'ilganidan erkalab, uning hamma talablarini bajarishga harakat qilamiz, lekin bu har doym ham samarali bo'lmaydi. Ya'ni biz bolani yoshligidan erka qilib qo'yishimiz mumkin, hatto ikki- uch yoshida bola xudbin bo'lib qolishi ham hech gap emas. Bunday bolalarni nazorat qilish ham qiyin bo'ladi. Bolada shunday holatlarni kuzatgan ota- ona endilikda farzandini jilovlay boshlaydi. Bola biror narsani xato qilsa, urushadilar va jazolaydilar, bu bolaga yomon ta'sir qiladi. Sababi shu vaqtgacha hamma uni ko'ngliga qarab, uning talablarini

so‘zsiz bajarishmoqda edi, endi bo‘lsa uni hohishlariga cheklovlar qo‘yilmoqda. Uning ongida shu vaqtgacha mehribon bo‘lgan ota- onasi, birdan o‘zgarib qattiqqo‘l odamga aylanib qoladi. Bolalarni jamiyatga to‘g‘ri moslashtirish uchun biz bolani boshidan to‘g‘ri tarbiya qilmog‘imiz zarur. Bu borada “erta ta’lim” usullaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

“Yangi tug‘ilgan chaqaloqning miyasi oppoq qog‘oz kabidir. Shu qog‘ozga yozganlarimiz bolani qanday inson bo‘lib rivojlanishini belgilab beradi. Erta rivojlanish shu chaqaloqning aqliy salohiyati va mislsiz yashirin imkoniyatlari bilan bog‘liqdir. Shu o‘rinda erta ta’lim har bir go‘dak uchun juda muhimdir”.

Masaru Ibukaning fikricha: “Uch yoshgacha bo‘lgan bolaga ota- ona “majburlashi” va yod olish (tushunmasdan yodlash) mos keladi, shu bois ota- onalar bolalarni yo‘naltirishi va yaxshilikka o‘rgatishi zarur. Bu yoshda bola ko‘p narsalarni anglamay, faqatgina takrorlab bilib olishi mumkin. Bu davrda bolaning miyasi tanqidiy va tahliliy qobiliyatlarga ega emas, u huddi yozilmagan oq qog‘ozga o‘xshaydi. Ma’lumotni qabul qilish uchun uni tushunishi yoki anglashi zarur emas. Ammo bu paytda bola o‘z holiga tashlab qo‘yilsa, u ajratmasdan faqatgina yaxshi ma’lumotni emas, balki yomon ma’lumotni ham qabul qiladi va bu uning shaxsi shakllanishida asos bo‘ladi. Shu bois ota- onalar doimiy ravishda o‘zlari to‘g‘ri deb bilgan xatti- harakat usulini mustaqil ravishda nima yaxshi, nima yomonligini bilmaydigan yosh bolaning miyasiga singdirib borishlari shart. Bunga esa ota- onaning “majburlashi” ham mos keladi”.

Bola jamiyatga ijtimoiy moslashishida avvalo, ota- onaning o‘rni yuqoridir. Agar ota- ona yoki yaqinlar bolani kamsitsa, masxara qilsa unda yomon odatlar shakllanishi, bolada jamoaga qo‘shila olmaslik, uyatchanlik, tortinchoqlik sifatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Bir dugonam jaxli chiqqanda, kim bilandir urushib qolganda, holat unga qarshi bo‘lib, asablari taranglashsa tez- tez ko‘zini ochib yumish odati bor edi. Bunday hunuk holat hammaga yaqqol bilinardi, bu holatda o‘zini noqulay his qilsa-da, odatini tashlay olmasdi. U bilan gaplashganimda bu odat unda go‘dakligida boshlanganini aytib bergandi. Bolaligida onasi koyiganda u xafa bo‘lib yig‘lasa, yoki arazlab onasiga qarab turaversa, onasi: “Ko‘zlaringni olaytirib qarama,

yig‘layversang ko‘zlaring yanada kattarib xunuk bo‘lib ketadi”, - deya bizning oldimizda tortinmay gapirishar edi. Bunday gaplardan keyin darhol u ko‘zini kichraytirishga harakat qilar va bu harakati natijasida uning ko‘zlari tez- tez ochilib-yumilardi. Kun ora bunday koyishlarni eshitib katta bo‘lgani uchun bu harakat unga odatga aylandi. Maktabga endi borishni boshlagan vaqtmizdayoq sinfdoshlar uning bu odati ustidan kulishni boshladi. Bunday masxara qilishlar unga juda kuchli ta’sir qilardi, hammadan o‘zini past tutardi, tortinchoq bo‘lib qolgandi, jamoa bilan ijtimoiy moslashib ketolmasdi. Mana shunday ota- onalarning yoki yaqinlarning bolani yoshligidan tengdoshlari yo bo‘lmasa begonalarining orasida urushib, kamsitib, masxara qilib koyishi kelajakda bolani rivojlanishiga katta ta’sir qiladi va bolani jamoada ijtimoiy moslasholmasligiga olib keladi.

Masaru Ibuka ota- onalarning bunday harakatini shafqatsizlik deb baholaydi va bu holat haqida shunday fikrlarni bildiradi: “Ko‘pgina ota- onalar farzandlar kamchiligini begonalar oldida muhokama qiladilar va: “Bolalar hech narsa tushunmaydi”, – deb o‘ylaydilar. Ammo kamchilik qanchalik kichik bo‘lmasin, uni ko‘pchilik oldida oshkor etish bolaga qanday zarar yetkazishini hech qachon taxmin qilib bo‘lmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, bola bir yoshga to‘lgunga qadar ya’ni unda “men” tuyg‘usi paydo bo‘lishidan oldin, uni to‘g‘ri tarbiya qilish kerak. Bola hali kichikligida qattiqqo‘llikni qattiqqo‘llik deb his qilmaydi. Qattiqqo‘llik qilgani uchun ota- onasidan xafa bo‘lmaydi. O‘z “men”i shakllanib bo‘lgan bola esa urushganingizni yaxshi biladi. Shuning uchun avval bolani faqat erkalatib, keyin qattiqqo‘llik qilinsa, qancha ko‘p koyishsa va jazolashsa, shunchalik ko‘p itoatsiz, qaysar va injiq bo‘lib boradi. Ota- onasidan xafa bo‘lib, ularni eshitishni ham hoxlamaydi. Bu holatdan ota- ona achchiqlanadi, ammo endi bu xatolarni tuzatish ancha qiyin bo‘ladi. Ba’zi hollarda ota- ona bu holatni tuzata olmaydi, ya’ni bola erka, qaysar va injiq bo‘lib katta bo‘ladi. Bunday holatni oldini olish uchun bolada “men” tuyg‘usi paydo bo‘lgunicha uni to‘g‘ri tarbiyalamoq shartdir. To‘g‘ri tarbiya qilingan bola jamoaga ham, jamiyatga ham tezda moslashadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Masaru Ibuka “Uchdan keyin kech” Toshkent. “Akademnashr”2021.
2. Masaru Ibuka “Uchgacha ayni vaqti” Toshkent. “Akademnashr”2021.
3. Ashirova O‘g‘iloy “Bolalarni aqliy rivojlantirishda erta ta’limning ahamiyati”.  
Journal of New Century Innovations. 2022.
4. Uz.tierient.com.

